

**ФУНДАМЕНТАЛ ВА
КЛИНИК ТИББИЁТ
АХБОРОТНОМАСИ**

***BULLETIN OF* FUNDAMENTAL
AND CLINIC MEDICINE**

2024, №4 (10)

МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**BULLETIN OF FUNDAMENTAL
AND CLINIC MEDICINE**

**ФУНДАМЕНТАЛ ВА КЛИНИК
ТИББИЁТ АХБОРОТНОМАСИ**

**ВЕСТНИК ФУНДАМЕНТАЛЬНОЙ И
КЛИНИЧЕСКОЙ МЕДИЦИНЫ**

Научный журнал по фундаментальным и клиническим
проблемам медицины
основан в 2022 году

Бухарским государственным медицинским институтом
имени Абу Али ибн Сино
выходит один раз в 2 месяца

Главный редактор – Ш.Ж. ТЕШАЕВ

Редакционная коллегия:

***С.С. Давлатов (зам. главного редактора),
Р.Р. Баймурадов (ответственный секретарь),
А.Ш. Иноятов, Д.А. Хасанова, Р.Д. Давронов,
А.С. Ильясов, Е.А. Харибова, Н.Н. Хабибова,
Ш.Б. Ахророва, Г.А. Ихтиярова, Б.З. Хамдамов***

***Учредитель Бухарский государственный
медицинский институт имени Абу Али ибн Сино***

2024, № 4 (10)

yuqori intensivligini aks ettiradi. Neyropatik og'riq DN4 so'rovnomasi (o'rtacha ball $7,7 \pm 1,2$ ball) va Pain Detect shkalasi bo'yicha $19,8 \pm 4,9$ ball asosida tasdiqlandi. MFI-20 so'rovnomasi bo'yicha asteniyaning o'zgarish darajasi sog'lom guruhga nisbatan barcha kichik o'lchovlarda statistik jihatdan farqlarga ega bo'ldi, umumiy asteniya va jismoniy asteniya sezilarli farqlar aniqlandi ($p < 0,01$).

Xulosa: 1. Komorbidli herpes infeksiyalari bilan postgerpetik trigeminal nevralgiada 39 bemorda (95,1%) neyropatik og'riqlarga egaligi aniqlandi. 2. MFI-20 so'rovnomasi bo'yicha asteniya baholashda, komorbidli postgerpetik trigeminal nevralgiada umumiy asteniya va jismoniy asteniya sezilarli farqlar aniqlandi.

VASKULYAR DEMENSIYADA XAVOTIRLI-FOBİK SINDROMNING SAMARALI PSIXOKORREKSIYASI

Qaraxonova S.A., Ibodullaev Z.R.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston

Bugungi kunda vaskulyar demansiyada uchraydigan psixologik sfera buzilishlarini davolash usullari ustida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilayotganligiga qaramasdan, xanuzgacha davolashda qo'llaniladigan samarali psixodiagnostika va psixokorreksiya bilan bog'liq bir qancha savollar ochiqlicha qolmoqda. Ayniqsa vaskulyar demensiyada eng ko'p uchraydigan psixologik sfera buzilishlaridan bo'lgan asosiy klinik simptomlar – turli darajadagi xavotirli buzilishlar: sarosimadan tortib, tarqalgan xavotirli buzilishlargacha bo'lishi mumkin. Ammo nevrologik tajribada xavotirli-fobik sindrom demensiyaga olib keluvchi sabablar fonida tashxislanmasdan qolib ketadi, natijada avskulyar demensiya to'liq korreksiya qilishning iloji bo'lmaydi (Norcross J.C., 2013). Bemorlarda mavjud bo'lgan xavotir va xavotirli-fobik sindrom nafaqat demensiyaning prognozini yomonlashtirib qolmay, balki letal natija hafvini ham oshiradi (Vid V.D. 2015). Xozirgi kunda zamonaviy klinik psixologiya psixoterapevtik diagnostikada shaxs buzilishlari, psixopatologik buzilishlar emas, balki bemorlarning klinik-sotsial va klinik-psixologik jihatdan o'rganish, xar bir psixologik buzilishlarda fokuslangan psixoterapevtik usuldan foydalanish tavsiya etmoqda (Heigl-Evers A. Et al., 2012).

Tadqiqot maqsadi. Vaskulyar demensiyada xavotir darajalarini o'rganish va ularning psixologik korreksiyasini takomillashtirish.

Tadqiqot materiallari va metodlari. Tadqiqot uchun materiallar Toshkent tibbiyot akademiyasi (TTA) 2 klinikasi maslaxat poliklinikasidan yig'ildi. Birlamchi tadqiqot materiali sifatida demensiya tashxisi bilan davolangan 40 nafar bemor olindi. Bemorlar 55-65 yosh oraliq'i bo'lib, o'rtacha yoshi $62,5 \pm 2,3$. Tashhis bemorlar klinikaga davolanish uchun kelganda shikoyati, anamnezi, ob'ektiv va ginekologik status, shuningdek paraklinik ma'lumotlar asosida qo'yildi. Ruhiy buzilishlar, ob'ektiv va nevrologik status Ibodullaev Z.R. tomonidan tavsiya etilgan tibbiy psixologik anketa orqali tekshirildi va tibbiy psixologik testlar orqali baholandi.(patent №001031)

Bemorlar davolash effektivligini aniqlash maqsadida ikki guruhga bo'lindi. 1-guruh: Bu guruxdagi bemorlarga bazis davo bilan birgalikda ratsional psixoterapiya va psixofarmakoterapiya-tetrametiltetraazobisiklooktandion (adaptol) qo'llanildi: n-18. 2-guruh: Ushbu guruxdagi bemorlarga bazis davo bilan birgalikda psixomotor terapiya va psixofarmakoterapiya-tetrametiltetraazobisiklooktandion (adaptol) qo'llanildi: n-22. Bemorlarda klinik-psixologik tekshiruvlar 1-3 kunlari va 27-30 kunlari o'tkazildi. Psixologik statusni baxolash uchun HADS shkalasidan foydalanildi. Psixokorreksiya usullaridan psixologik suhbat, psixomotor terapiya va autotrening qo'llanildi. Suhbat har bir bemorga o'rtacha 45-60 min, 3-4kunda bir marotaba, 30 kun davomida bemor ahvolini inobatga olgan xolatda 6–8 marotaba o'tkazildi. Suhbatlarning 2tasi statsionar sharoitda, qolganlari ambulator ravishda o'tkazildi. Davolanish sxemasi: birinchi haftasida

20mg 1mahal, so'ngra 2hafta davomida 20mg dan 2mahal, to'rtinchi haftadan 7kunga 20mg dan berildi. Kuzatuv davomiyligi-1oy.

Izlanishning natijalari. HADS shkalasi orqali xavotir darajalari aniqlanganda: 1-guruxda 4ta bemorda yengil daraja, 6ta bemorda o'rta daraja, 8nafar bemorda yuqori darajadagi xavotir ko'rsatkichlari; 2-guruxda 6ta bemorda yengil daraja, 8ta bemorda o'rta daraja, 8nafar bemorda yuqori darajada ekani aniqlandi ($R < 0,05$). Bemorlar 1oy davomida to'liq muolaja kursini qabul qilganlaridan keyin ambulator sharoitda xavotir darajasi qayta tekshirildi. Bunda 2-guruxda og'ir darajali havotir butunlay uchramaydi, o'rta yengil darajasi yengil darajaga o'tgan, 10ta bemorda esa xavotir aniqlanmadi ya'ni bemorlarning psixologik statusi samarali psixofarmakoterapiya natijasida sog'lomlashgan.

Xulosa. Olingan natijalarga asoslanib, vaskulyar demensiyada xavotirli-fobik sindromda uchraydigan xavotirni korreksiyalashda bazis davo - farmakoterapevtik davo bilan bir qatorda psixomotor terapiya usulini qo'llash bemorlarning psixologik xolati yaxshilanishi natijasida xayot sifatini oshirishga sabachi bo'lishi aniqlandi.

BOLALARDA O'TKIR OSTI SKLEROTIK PANENSEFALITI: KLINIK NAMOYONDALARI

Qodirova Z.M.

Nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrası

Toshkent tibbiyot akademiyasi, O'zbekiston, Toshkent sh.

Ilmiy rahbar - t.f.n., dotsent Ishanhodjayeva G.T.

Mavzuning dolzarbligi. O'tkir osti sklerotik panensefalit qizamiq virusi infeksiyasi natijasida shakllanadigan markaziy asab tizimining (MNS) kam uchraydigan progressiv degenerativ kasalligi bo'lib, ushbu kasallik ilk bor 1934-yilda AQSH lik patomorfolog Dauson tomonidan aniqlangan. Kasallik dunyoning barcha joylarida aniqlangan. Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlarida ko'proq uchraydi. Kasallik adabiyotlarda 1:1 000 000 holatda uchrashi aytilgan.

Ilmiy maqsad. Qizamiq virusi infeksiyasidan keyin rivojlangan o'tkir osti skleratik panensefalit bilan kasallangan bolalarda anamnez va klinik ko'rsatkichlarni taxlil qilish.

Tadqiqot materiallari va qo'llanilgan usullar. Izlanish materiali qilib TTA ko'p tarmoqli klinikasi bolalar nevrologiyasi bo'limida davolangan 8 nafar bemor olindi. Ularda to'liq nevrologik tekshiruv o'tkazildi. Qon analizlaridan anti-Measles IgG "LAB MEDICAL" xususiy shifoxonasida tekshirildi. Bemorlarda bosh miya MRTsi va EEG tekshiruvlari o'tkazildi. Tekshirilayotgan 8 nafar bemordan 1 nafari qizamiqqa qarshi vaksina bilan emlangan. 7 nafar bemor qizamiqqa qarshi emlanmagan. Bemorlarning barchasi 2 yoshgacha bo'lgan davrda qizamiq bilan kasallangan. Tekshirilayotgan bemorlarda qizamiqdan so'ng 2 yildan 4 yilgacha bo'lgan davrda, o'rtacha 3 yildan keyin o'tkir osti sklerotik panensefalit belgilari shakllana boshlagan.

Tadqiqot natijalari. Bemorlarning 8 nafarida qon analizlaridan Anti-Measles Virus IgG (normada 0 – 0,12 ME/ml) tekshirildi. Bemorlarning 8 nafarida bosh miya MRT tekshiruvi o'tkazildi. Bemorlarning 5 nafarida EEG tekshiruvi o'tkazildi (talvasa shakllangani sababli). Jinsga nisbatan uchrashi: 6 nafar o'g'il bolalar, 2 nafar qiz bolalar. Bemorlarning yoshi 4 yoshdan 8 yoshgacha bo'lib, o'rtacha 4,5 yoshni tashkil qildi. Bulardan 3 nafarii 4 yosh, 2 nafari 5 yosh, 2 nafar 6 yosh, 1 nafari 7 yosh. Bemorlarda quyidagi klinik belgilar aniqlandi: xissiy o'zgarishlar, diqqat va xotira buzilsihlari, yurganda yiqilish, qoqilisi, yurganda chayqalish, uzoq yura olmaslik, xulq-atvor buzilishlari, umumiy xolsizlik, miyoklonik tortishishlar, epixurujlar, yurmay qolishlik, ishtaxa buzilishi, og'riqlar,

Zayniyev Sh.S. SEMIZLIK BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA BARIATRIK ARALASHUV DAN OLDIN VA KEYIN LEPTIN VA ADIPONEKTIN GORMONLARINI O'ZGARISH DINAMIKASI	131
Икра хон, Абдужабборов Б.Б. ПОСТКОВИД СИНДРОМДА ГИПЕРТОНИК НЕФРОПАТИЯНИНГ КЛИНИК ЛАБОРАТОР ЖИҲАТЛАРИ	132
Келдиёрова Н.Н. ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ КОРИ У ВЗРОСЛЫХ	133
Kelishov A.M. KOMORBIDLI POSTGERPETIK TRIGEMINAL NEVRALGIADA ASTENIYA DARAJASINI BAHOLASH	135
Qaraxonova S.A., Ibodullaev Z.R. VASKULYAR DEMENSIYADA XAVOTIRLI-FOBIK SINDROMNING SAMARALI PSIXOKORREKSIYASI	136
Qodirova Z.M. BOLALARDA O'TKIR OSTI SKLEROTIK PANENSEFALITI: KLINIK NAMOYONDALARI	137
Наимова Ш.А. ВЫЯВЛЕНИЕ ХРОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ ПОЧЕК У БОЛЬНЫХ РЕВМАТОИДНЫМ АРТРИТОМ	138
Narmetova S.Y FEATURES OF CLINICAL REJECTION OF HYPERTENSION AGAINST THE BACKGROUND OF DIABETES MELLITUS IN PATIENTS	139
Ниязова Г.Т., Абсаттарова В.К., Калниязова И.Б. РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ ГЕМОКОНТАКТНЫХ ИНФЕКЦИЙ СРЕДИ МЕДИЦИНСКОГО ПЕРСОНАЛА В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	140
Нурбоев И.Ж., Орифова М.Х. БОЛАЛАР МУАССАСАЛАРИДА ЭНТЕРОБИОЗНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ЧОРА- ТАДБИРЛАРИ	142
Нурмухамедова Д.М. ГЕНЕТИЧЕСКАЯ ПРЕДРАСПОЛОЖЕННОСТЬ ЛОГОНЕВРОЗА У ДЕТЕЙ	143
Одилова О.Б. ОПРЕДЕЛЕНИЕ СТАТУСА ОБЕСПЕЧЕННОСТИ ВИТАМИНОМ D У ПАЦИЕНТОВ С ОЖИРЕНИЕМ	144
Oybutayeva N.U. SUBCLINICAL HYPOTHYROIDISM AND OBESITY IN WOMEN OF FERTIL AGE	145
Олимова Ш. Ш. ИЗУЧЕНИЕ ФУНКЦИИ ТРОМБОЦИТОВ ПРИ НАРУШЕНИИ СОСУДИСТО-ТРОМБОЦИТАРНОГО ГЕМОСТАЗА	146
Орифова М.Х., Нурбоев И.Ж. САМАРҚАНД ВИЛОЯТИДА ОИВ-ИНФЕКЦИЯСИНИНГ МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИ ОРАСИДА ТАРҚАЛИШИНИНГ ЭПИДЕМИОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ	147
Pulotova G.A. GEPATIT A VIRUSINING MINTAQAMIZDA UCHRASH HOLATI	147
Rahimova A. VIRUSLI GEPATIT B VA D NING BIRGALIKDA KECHEGANDA IMMUNOLOGIK O'ZGARISHLAR	148
Садуллаева Ш.М. РЕВМАТОИД АРТРИТДА ҚАЛҚОНСИМОН БЕЗ АНТИТАЧАЛАРНИНГ ТАЪСИРИ	150